

INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISH DAVR TALABI

Jabborova Sayyoraxon Muxammadqobilovna ,

Axmedov Abdulxay Toshuxtayevich

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası
o'qituvchilari*

Abdullayeva Laylo Rasuljon qizi ,

Abdujalilova Muhtasar Yoqubjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Internet imkoniyatlari . Bugungi kunda internetning jamiyatdagi o`rni va yoshlar ongiga ta`siri. Ijtimoiy tarmoqlardan to`g`ri va samarali foydalanish bosqichlari. Mamlakatimizdagi har bir yo`nalishga internet tarmog`i kirib keldi va bu rivojlanish yo`lida o`zini inkor etib bo`lmas o`rniga ega.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрено понятие социальной сети и ее суть. Возможности Интернета Сегодня влияние Интернета на сознание молодых людей в обществе. Этапы правильного и эффективного использования социальных сетей . Сеть Интернет проникла во все уголки нашей страны и занимает неоспоримое место на пути развития.*

Abstract: *In this article , the concept of social network and its essence. The possibilities of the Internet. Today, the influence of the internet on the minds of young people in society. Stages of correct and effective use of social networks. The Internet network has entered every area of our country , and it has an undeniable place in the path of development.*

Kalit so`zlar: *internet, media maydon, jamiyatni axborotlashtirish, axborot, axborot oqimi.*

Ключевые слова: *Интернет, медиа-зона, общественная информация, информационный поток, информация.*

Key words: *Internet, media zone , public information, information, information flow.*

KIRISH: Bugungi kunda dunyo ahlining aksariyat qismi Internetdan foydalanib kelmoqda. Inson va jamiyat bir joyda turmaydi , doim o`zgarib boradi , biz yashab turgan hozirgi hozirgi vaqtni globallashuv davri deb atalishi odatiy holga aylanib ulgurgan. Bunday vaqtda internetdan samarali va tog`ri foydalanish har bir inson uchun muhimdir. Internet nafaqat axborot olish , balki bilim olish , o`z ustida ishlash va ijtimoiy hayotda faol bo`lish uchun kuchli vositadir. Quyidagi jihatlar internetdan samarali foydalanishda e`tiborga olinishi kerak :

1. Aniq maqsad bilan foydalanish :

Internetda ma`lumot cheksiz , lekin undan foydali bo`lganini topish uchun maqsad aniq bo`lishi kerak. Masalan, o`qish uchun ilmiy maqolalar yoki yangi ko`nikmalarni o`rganish kabi.

2. Ishonchli manbalardan foydalanish :

Internetdagi barcha ma`lumot to`g`ri emas. Ishonchli , tekshirilgan va rasmiy manbalardan foydalanish juda muhim hisoblanadi.

3. Vaqtni tog`ri boshqarish:

Internetda ko`p vaqtni samarasiz va befoyda o`tkazmaslik uchun vaqtni rejalashtirish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

4. Ko`nikmalarni rivojlantirish:

Internet yordamida yangi texnologiyalarni o`rganish yoki o`rgatish, chet tillarini mukammal o`zlashtirish yoki online kurslarda ishtirok etish ijtimoiy tarmoqdan samarali foydalanishning muhim omili hisoblanadi.

5. Ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish:

Ijtimoiy tarmoqlar faqat o`yin-kulgi yoki do`stlar bilan befoyda suhbatlashish uchungina emas, balki professional tarmoq yaratish va yangi dasturlarni ishlab chiqish, yangi imkoniyatlar qidirish uchun ham ishlatilishi kerak.

Internetni samarali ishlatgan inson o`z vaqtini tejaydi , imkoniyatlarni kengaytiradi va hayotni yaxshilashda yutuqlarga erishadi. Hozirgi davrga kelib

insonlar o`rtasida ijtimoiy tarmoqlardan eng ko`p yoshlar orasida foydalanish soni ortayotganini ko`rishimiz mumkin, albatta bu davlat va jamiyat hamda rivojlanish uchun juda yaxshi imkoniyat lekin ayrim yoshlar internetdan to`g`ri foydalanishdan ko`ra samarasiz va befoyda narsalarga masalan, ijtimoiy tarmoqlarda keng ommalashayotgan qisqa roliklar ,turli xil blogerlarning hayotini kuzatish kabi keraksiz mashg`ulotlarga o`zlarining qimmatli vaqtlarini sarflashmoqdalar. Jamiyatimizdagi hamma ota-onalar farzandlarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtlarini va nima maqsadda foydalanayotganlarini har kuni o`zlarining ish vaqtlaridan va dam olish soatlarida farzandlarining ommaviy axborot vositalaridan foydalanishlarini nazoratga olsa , albatta bu noxush holatlar kamayadi.

Material va metodlar: Ushbu maqola qiyosiy tahlil usulida yozilgan bo`lib unda, internetning vujudga kelishi, internet o`zi nima ? , internet bizning ish faoliyatimizdagi o`rni hamda bu orqali yurtimiz qanday rivojlanmoqda kabi mavzular keng yoritib berilgan.

Natija va mulohazalar: Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo`lmasligini namoyon etayotir. (1) . ko`rishimiz mumkinki XXI asrga kelib insonlar ishga joylashmoqchi yoki yoshlar oliy ta`lim muassasasiga ro`yxatdan o`tmoqchi bo`lsa ham online ro`yxatdan o`tmoqdalar, bundan 10 yil avval ham oliy dargohlarga borib vaqt sarflab ro`yxatdan o`tib kelinar edi davrlar vaqtlar o`tishi bilan esa hamma amaliy ishlar masofaviy ortiqcha vatq sarflanmay bajariladigan holatga yetib keldi. Bu holat insonlarga juda ham qulaylik va ishlarida samaradorlikni berib kelmoqdalar shu boisdan insonlar endi hayotini ijtimoiy tarmoqlarsiz va internetsiz tassavvur etish juda ham qiyin bo`lib qoldi. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo`layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo`lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog`liqdir va ularga bu ko`plab yaxshi sharoitlarni yaratib beradi, misol uchun online ish bilan shug`ullanadigan shaxs ko`proq vaqti uyda va farzandlarining oldida o`tkazadilar.

Dunyo miqiyosida hamda mamlakatimizda sodir bo`layotgan o`zgarishlar, yangiliklar, voqea-hodisalar, yangiliklar to`g`risidagi ma`lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda shiddat bilan aks etyapti va biz bu axborotlarni uydan chiqmagan holatda hatto dam olish kunlari ham bir zumda xabardor bo`lib boryapmiz. Bu yangiliklardan xabardor bo`lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar, va kompyuter texnologiyalkaridan foydalanish bizga anchagina qulaylik yaratib bermoqda. Bundan tashggari, o`zaro ma`lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o`z fikrini bayon etish yoki o`zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vosita hisoblanadi. Bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o`z fikrlari, qarashlari va tuyg`ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko`rsatmoqda. Shu sababdan ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagi odamni bamisoli darajada “ maftun “ qilib turadi. Ko`plab yoshlar o`zlarining qimmatli vaqtlarini befoyda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo`yi foydalanishadi, buning oqibatida ular deyarli barcha axboroyga ega bo`lishadi va o`z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi. Ammo bildirilgan munosabatlarning barchasini saviyali, ma`naviyatli kishilarning fikri deb bo`lmaydi. Bugungi kunda yetarli bilim, malaka va ko`nikmalarga ega bo`limgab kimsalar ham to`g`ri yoki noto`g`riligini o`ylab o`tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma`lumot yuzasidan yoxud ba`zi masalalarga bilim va salohiyati yetadimi, yoqmi, bundan qat`iy nazar, o`z fikrini bildirishadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi noto`g`ri axborot yoki guruhlar, kanallar ko`plab yoshlarni o`z yo`lidan adashtirishga ham sababchi bo`lmoqda. Bularning barchasi yoshlarimizning qiziquvchanligi va man etilgan kanallar yoki insonlar bilan muloqot qilishi natijasida ham kelib chiqmoqda.

Media maydonni shaxs va jamiyatdagi o`rni.

Internet bu dunyo bo`ylab kompyuter tarmoqlari va qurilmalarni birlashtiruvchi global tarmoqdir. U ma`lumot almashish, xizmatlar ko`rsatish va muloqotni ta`minlash uchun ishlatiladi. Internet orqali turli xil vositalar masalan, saytlar dasturlar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar yaratish mumkin. Internet

lotincha : inter – aro va net – tarmoq degan ma`noni anglatadi. Yuqorida keltirilgan barcha holatlar ,albatta, media maydonni sodir bo`ladi. Hozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini , shu jumladan ta`limni rivojlanishini “ media’ ya`ni televedeniya, radio, kinomotografiya, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizmlarisiz tasavvur qilish qiyin. (3) Media nima : Aloqa vositasi sifatida , odamlar aloqa jarayonini amalga oshirish uchun foydalanadigan barcha vositalar , jumladan kanallar yoki ma`lunotlarni uzatish shakllari deb ataladi. Bugungi axborotlashgan jamiyatga kelib media maydonni internetsz tasavvur etib bo`lmaydigan holatga keldik , chunki biror br media axborotni uzatish kerak bo`lsa vaqt sarflab kimningdur yoniga olib berishning o`rniga internet tarmog`I orqali oz soniyalarda media ma`lumotlar minglab balki milliardlab insonlarga uzatilmoqda. Odamlar o`rtasidagi muloqotga ham keladigan bo`lsak , aksariyat insonlar yuzma yuz ko`rishib muloqot qilishdan ko`ra media maydondagi vositalarda orqali muloqot qilishni afzal ko`rmoqdalar bu ularga qulaylikni his etishga yordam bermoqda. Ammo, ommaviy axborot vositalari borku deb ayrim insonlar yaqinlaridan faqatgina mobil vositalar yordamida ko`rishmoqdalar buning talaygina salbiy tomonlari ham bor.Masalan, yoshi ilug` ota-onalar , buvi yoki bobolar mobil aloqa vositalaridan foydalana olishmaydi buning oqibatida farzandlari va yaqinlarini tez tez ko`rib turish va holidan xabar olish kabi insoniylik fazilatlarini unutib qo`ymoqda. Media maydonining jamiyatdagi roli :

1. Axborot tarqatish va jamoatchilik fikrini shakllantirish
2. Kuchli kommunikatsiya vositasi.
3. Nazorat va monitoring vazifasi.
4. Madaniyat va qadriyatlarni targ`ib qilish .
5. Ijtimoiy masalalarni yoritish va muhokama qilish.

Media zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan desak mubolag`a bo`lmaydi.U shaxsga ta`lim olish , ko`ngilochar imkoniyatlar yaratish va fikrlash doirasini kengaytirishda yordam berib kelmoqda.Jamiyat nuqta`i

nazaridan kelib chiqadigan bo`lsak , media axborotni tarqatish , madaniy almashinuv va ijtimoiy masalalarni muhokama qilishda yetakchi vosita bo`lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga jamiyat va aksariyat yoshlar hayotida uning salbiy ta`sirini cheklash uchun media savodxonlik darajasini oshirish juda muhimdir, chunki qachonki jamiyat va asosan yoshlar orasida media tushunchasi va madaniyati qanchalik yuqori bo`lsa internet tarmoqlaridan jamiyatimiz shunchalik to`g`ri , foydali va samarali , faqatgina yangi dasturlar yaratish , foydali ma`lumotlarni yetkazish , noqonuniy , ta`qiqlangan saytlardan uzoqroqda yurish holatlari kuzatiladi shundagina media savodxonligining asosiy maqsadi faqatgina nazariyada emas aksincha amaliyotda ham keng targ`ib qilinadi.

Mamlakatimizda rivojlanish yo`lida internet tarmog`idan samarali foydalanish.

Internet tarmog`i vaqt o`tgan sayin har bir yo`nalish, tashkilot, muassasa, oliy o`quv yurtlari va xonadonimizgacha kelib ulgurdi. Bizning yurtimizda internetdan foydalanuvchilar soni kundan kunga ortib bormoqda . Ko`pchilik yoshlar hayotiy tajribaga ega bo`lmasalarda, ammo ijtimoiy tarmoq va undan foydalanishda aksariyat kattalardan ko`ra ko`proq malaka va ko`nikmaga ega bo`lganligi sababli avval inson bo`lmay turib axborotga axylanib qolmoqdalar. Internet hozirgi zamon talabiga mos keladigan kompyuter va boshqa ommaviy axborot vositalari yagona tarmog`i bo`lib , bizga barcha sohalarga noaniqlik ya`ni ongimizga mavhum bo`lgan tushunchalar haqida ochiq , oddiy va ravon ma`lumot beruvchi manbadir. Aytish joizki, bugungi kunda ushbu omilga bo`lgan ehtiyoj va talab kundan kunga ortib bormoqda, mazkur tarmoq butun dunyo miqiyosida global tarmoq sanaladi. Undagi mavjud yangiliklar tasvir, video yoki matn ko`rinishidagi xabarlarini oz daqiqalarda milliardlab insonlarga yetkazish va vaqtdan samarali foydalanish imkoniyatlarini bersa, boshqa tarafdin esa insonlarni tasvirlari va jozibadorligi bilan o`z virtual olamiga olib kirib ketmoqda. XXI asrga kelib mamlakat rivojini internet tarmog`isiz tasavvur etib bo`lmaydi chunki bugungi kunda deyarli barcha soha vakillari internet tarmog`idan foydalanishmoqda va ish samaradorligini oflayndan ko`ra ko`proq natija

bermoqda. Misol qilib oddiy o`zimizning ish jarayonimiz yoki o`quv jarayonimizdagi faoliyatimizni olsak, bizga biror bir ma`lumot kerak bo`lib qolsa biz uni ilmiy va adabiy ma`lumotlardan qidirib topib axborotni yetkazgunimizcha, internet tarmog`idagi qidiruv tizimiga bizga kerak bo`lgan axborotni bersak bizga talaygina ma`lumotlar chiqarib beradi biz o`zimiz uchun kerakli bo`lgan ma`lumotni kompyuter yoki mobil aloqa vositalarimiz orqali nusxalab olinib uzalish kerak bo`lgan foydalanuvchiga osongina yetkaza olamiz va bu biz adabiyotlardan qidirib topib yozib uzatishdan ko`ra ancha samaraliroq va tez fursatlarda amalga oshiriladigan jarayondir.

Jamiyatimizda chet tillarini o`rganish kundan kunga rivojlanib bormoqda. Mana shu sohada ham ijtimoiy tarmog` va internet o`z samarasini berib kelyapti. Chet tilini o`rganmoqchi bo`lgan talabgorlar orasida mobil aloqa vositasi va internet muhim o`rin tutmoqda. Masalan, internet tarmoqlaridan samarali foydalanayotgan yoshlar chet el fuqarolari bilan chet el tilida o`z darajaiga mos bo`lgan chjet el fuqarolari bilan miloqat olib boruvchi dasturlarni yaratib chet tilini o`rganmoqchi bo`lgan talabgorlarga keng imkoniyat yuaratdi, ya`ni bu dastur o`zlarining chet tilida gaplasha olish qobilyatini oshirish imkoniyatini yaratib bermoqda bu dastur orqali mamlakatimizning moddiy boyligi ham ortib bormoqda. Bu ham mamlakatning rivojlanish yo`lidagi usul va uslub desak mubolag`a bo`lmaydi.

Ijtimoiy tarmoq va internet mamlaktning siyosiy tuzumida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan , bugungi kunda zamonning ba`zi notinchliklarini hisobga olsak chet elga borib biror ish yuzasidan hamkorlik qilib kelishdan ko`ra ko`pchilik online hamkorlikni afzal ko`rmoqda.O`zlarining xavfsizli va ijtimoiy tarmoqlarning tez ishlay olish qobilyatini hisobga olsak bu juda ham yaxshi smara bermoqda.Ular buy o`lni tanlab moddiy mablag`larine tejab qolmoqdar va shu ishga sarflaydigan vaqtini farzandlari tarbiyasi ,oilasi bag`rida mazmunli o`tkazmoqdalar.

Yana shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, Internet vositalaridan o`rin olgan jamiki axborot va ma`lumotlarning hammasi ham rost , haqiqiy emasligi

ayni vaqtda ayon bo`lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, olinayotgan dalillarning qay darajada to`g`riligini anglash, mushohada etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ko`plab noto`g`ri ma`lumotlar sbali ko`plab urishla va kelishmovchiliklar kelib chiqishi mumkin shuning uchun navvalo ma`lumot va axborotlarning to`g`ri aniqligiga ishonch hosil qilish ham muhim omildir. Internet orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda va turmush tarzimizda ham samarali foyda keltirmoqda faqatgina bularning eng eng ishonchlilarini tanlab olish qolgan xolos.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kun, bugungi davr talabi yosh avlodlar internet tarmog`i, ommaviy axborot vositalaridan to`g`ri va samarali foydalanib mamlakatimiz, yurtimiz rivoji, ravnaqiga o`z xissalarini qo`shishdir. Buning uchun mamlakatimizda yetarlicha shart – sharoitlar mavjuddir. Media savodxonlikni mukammal egallab shu bilimlar asnosida media maydondagi barcha imkoniyatlardan samarali foydalana olish bugungi kunda siz va bizning asosiy majburiyatimiz va burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andijon Davlat Pedagogika Instituti .Xamidova Rislig`oy Farxadovna. “ Media Savodxonlik va Axborot Madaniyati”. “ Bookmany Print “. Toshkent – 2023.
 2. Y.Mamatova, S. Sulaymonova. O`zbekiston mediata`lim taraqqiyot yo`lida. O`quv qo`llanma. Extremum – press, 2015.
 3. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o`quv qo`llanma. Movarounnaxr, 2016.
 4. А.В.Федерову Медиаобразования и медиаграмотностью учебное пособиею М. 2018 г
 5. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogic jihatlari. O`quv – amaliy qo`llanma. Extremum – press, 2017.
- abdullayevalaylo412@gmail.com